

*O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasi*

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 2018 yil yanvar–avgust holatiga

RAQAMLAR:

- **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2173 taga o'sdi**
2018 yilning yanvar-avgust oyida viloyat yilning boshiga nisbatan faoliyat bo'yicha 2837 ta ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2173 ta (8,8 %) yangi tashkil etildi, bu esa g a o'tgan yilning shu davriga o'sgan hamda ularning umumiy nisbatan 879 taga ko'pdir. soni 26817 tani tashkil etgan.
- **Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi 0,4 f.p. o'sdi**
Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan ning asosiy ulushi Andijon yilning shu davriga shahrida (31,7 %), Asaka nisbatan 47,2 % ga (8,9%), Andijon (6,3 %) va kamaygan hamda ularning Shahrixon (6,2 %) soni 675 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.
- **Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni 2162 taga oshgan.**

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Andijon viloyati	28257	100,0	26817	100,0
Oltinko'l	1561	5,5	1397	5,2
Andijon	1965	7,0	1793	6,7
Baliqchi	1452	5,1	1399	5,2
Bo'z	677	2,4	671	2,5
Buloqboshi	694	2,5	682	2,5
Jalaquduq	1086	3,8	1056	3,9
Izboskan	1261	4,5	1220	4,5
Ulug'nor	550	1,9	546	2,0
Qo'rg'ontepa	1571	5,6	1345	5,0
Asaka	2539	9,0	2502	9,3
Marxamat	1243	4,4	1209	4,5
Shahrixon	1988	7,0	1741	6,5
Paxtaobod	971	3,4	942	3,5
Xo'jaobod	951	3,4	938	3,5
Andijon sh.	9311	33,0	8946	33,4
Xonobod sh.	437	1,5	430	1,6

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan **25,3 %** savdoda, **20,0 %** sanoatda, **8,7 %** qurulishda, **6,9 %** qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, **4,7 %** yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, **3,8 %** tashish va saqlash, **1,9 %** axborot va aloqa, **2,2 %** sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va **26,5 %** boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-avgust holatiga 2837 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 44,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Andijon shahrida (786 ta), Asaka (253 ta), Oltinko'l (180 ta), Andijon (178 ta) va Shahrixon (176 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Ulug`nor (73 ta) tumanida, Honabod shahrida (76 ta), Buloqboshi (79 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi boshqa turlarda (723 ta), sanoatda (589 ta), savdoda (581 ta), qurilishda (320 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (197 ta) hamda tashish va saqlashda (153 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (49 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (105 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (120 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-avgust holatiga.	2018 yil yanvar-avgust holatiga.
Jami:	1958	2837
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	191	197
Sanoat	585	589
Qurilish	182	320
Savdo	458	581
Tashish va saqlash	87	153
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	87	105
Axborot va aloqa	40	49
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	48	120
Boshqa turlari	280	723

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 sentyabr holatiga 22231 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6144 ta, oilaviy korxonalar – 543 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 14929 ta va boshqalar 615 tani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 195 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 31 taga yoki 19,7 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 112 tasi qo'shma korxonalar, 83 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 84 ta (43,1 %), Andijon tumani 16 ta (8,2 %), Shahrixon tumani 16 ta (8,2 %) va Asaka tumanlari 11 ta (5,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bo'z tumani 1 ta (0,5 %), Ulug'nor tumani 3 ta (1,5 %), va Paxtaobod tumani 4 ta (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 142 ta (72,8 %) va savdoda 18 ta (9,2 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (0,5 %), tashish va saqlashda 2 ta (1,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 ta (3,6 %), qurilishda 7 ta (3,6 %), boshqa faoliyat turlarida 9 ta (4,6 %) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 9 ta (4,6 %) tashkil qilgan. Shu bilan birga axborot va aloqa faoliyat turlarida esa tashkil qilinmagan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-avgust oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 24 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan yoki 1,5 baravarga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi - 7 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 3 ta, Pokiston Islom Respublikasi - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston Respublikasi - 1 ta, Belarusiya Respublikasi - 1 ta va Hindiston Respublikasi - 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2018 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-avgust holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 10 ta, savdoda 5 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta, tashish va saqlashda 2 ta hamda boshqa turlarda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, birlikda**



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 22100 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 5,6 % ga pasaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 7904 tasi (35,8 %) Andijon shahriga, 2120 tasi (9,6 %) Asaka, 1511 tasi (6,8 %) Andijon hamda 1397 tasi (6,3 foiz) Shahrixon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22100 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 6760 tasi (30,6 %) – savdoda, 5304 tasi (24,0 %) - sanoatda, 2611 tasi (11,8 %) - boshqa faoliyat turlari, 2331 tasi (10,5 %) - qurilishda, 1806 tasi (8,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1254 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1003 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 520 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda shuningdek, 511 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasiga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-avgust holatiga 2293 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,1 % ga ko'pdir.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (689 ta), Asaka (212 ta), Andijon (158 ta), Oltinko'l (146 ta) va Shahrixon tumanlarida (140 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (47 ta), Buloqboshi (56 ta) hamda Bo'z (64 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (589 ta), savdoda (580 ta) va qurilishda (320 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (49 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida (105 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (118 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 572 tani tashkil etib, ulardan 543 tasi yoki 94,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **11,0** %ga oshganligini ta'kidlash lozim

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda oilaviy korxonalarning 43,5 % yoki 236 tasi sanoat, 24,3 % yoki 132 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,0 % yoki 60 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,8 % yoki 53 tasi savdo, 7,6 % yoki 41 tasi boshqa faoliyat turlar, 1,1 % yoki 6 tasi qurilish, 1,7 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 0,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**

Nashr uchun mas'ul: Z.Sidikov